

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIYFAKULTET
TARIX KAFEDRASI**

qo'lyozmahuquqida

“5120300-Tarix(mamlakatlarvamintaqalarbo'yicha)” ta'limyo'nalishi

MASHARIPOV JALOLIDDIN GANIYEVICHNING

“KULOLCHILIKDA AN'ANA VA URF ODATLAR”

mavzusidabajargan

BITIRUB MALAKA VIYISHI

GULISTON 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
I bob. Kulolchilik san'ati tarixi: tarix va zamon.....	8-30
1.1. Kulolchilikning vujudga kelishi tarixidan.....	8-17
1.2. O'zbekistonda kulolchilikninn grivojlanishi tarixidan.....	18-30
II bob. Kulolchilik san'ati maktablari: tarix va zamon.....	31-47
2.1. Qashqadaryo viloyati Kasbi kulolchilik maktabi.....	31-36
2.2. G'urumsaroy va Rishton kulolchilik maktabi.....	37-43
2.3.G'ijduvon kulolchilik maktabi.....	44-47
Xulosa.....	48-49
Foydalanilganadabiyotlar.....	50-53

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng Vatan tarixini o'rganish va tadqiq etish, o'zlikni anglashga qiziqish ortdi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan"¹. Shubhasiz, tarix shohidligi shaxs kamoloti uchun saboq bo'lib, insonga tegishli ta'lim-tarbiya beradi. O'z navbatida haqqoniy tarixni o'rganish va tarixiy merosni tiklashda inson tarixiy xotirasining o'ziga xos o'rni bor. Tarixiy xotira bu – hayot mazmunini, avlodlar o'rtasidagi vorislik tuyg'usini anglash demakdir².

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi.

Hunarmandchilikning bir bo'lagi bo'lgan kulolchilik tarixi ana shu hunarmandchilikning paydo bo'lishidan to hozirgi zamon bosqichigacha bo'lgan davr kulolchilik taraqqiyotini o'rganadi, shu davr mobaynida yashab ijod etgan va ijod qilayotgan kulollar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishadi, ularning asarlarini tahlil etadi, taqqoslaydi. Kulolchilik tarixi taraqqiyotida sodir bo'lgan turli badiiy maktab, yo'nalish, oqim va uslublar kurashining mohiyatini yoritadi.

O'zbekiston kulolchiligi – badiiy ish uslublari eng qadimiy turlaridan hisoblanadi. Kulolchilik san'ati asari sirlangan va sirlanmagan ish uslublari asosida yuzaga keladi. Sirlanmagan kulolchilik hajmi jihatidan katta bo'lgan, xo'jalik uchun kerak

¹Каримов И.А. Юсак маънавият- енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 4.

²Каримов И.А. Тарихий хотира ва инсон омили – Буюк келажакимизнинг гаровидир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 18.

bo'ladigan buyumlarni o'z ichiga oladi. Masalan, suv va mevalar solish uchun mo'ljallangan xumlar, ko'zalar, non yopish uchun tandir va boshqalarda buni ko'rish mumkin.

Usta kulollar o'zbek milliy kulolchilik an'analarini asrab avaylab, yangi ijodiy qirralarini va boy ma'naviy merosimizni o'rganib, uni Toshkent shakllanib ulgurgan. Xorazm, Rishton, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, G'ijduvon va Toshkent kulolchilik san'atining mashhur maktablarini misol keltirish mumkin¹.

Haqiqatan ham, insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o'tmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Kulolchilik san'ati tarixini o'rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish o'tmish odamlarining his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda xayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilishi darajasi. Mamlakatimiz kulolchilik tarixini yoritishda XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklarida bo'lgan rus harbiylari hamda evropalik sayyohlar tomonidan qo'lga kiritilgan ma'lumotlar muhi o'rin tutadi. Ulardan N.Xanikov, A.Vamberi, M.Bichurin, A.Xoroshxin, N.Maev, V.V.Krestovskiy, S.A.Artyunov, N.A.Aristov va boshqalar o'sha davrlardagi hunarmandchilik turlari qatori kulolchilikka ham qisman to'xtalib o'tganlar.

1917-1991 yillarda O'rta Osiyo tarixiga doir qimmatli ilmiy asarlar yaratib, asarlarida kulolchilik tarixi bo'yicha ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tgan olimlar sirasiga A.A.Semyonov,

¹Мирзахмедов Д.К. Глазурированная керамика Бухары XIX вв. / Из истории культурного наследия Бухары. - Ташкент, 1990. – С.36

S.Ayniy, V.L.Vyatkin. P.P.Ivanov, B.I.Iskandarov, V.V.Bartold, E.M.Masson, O.A.Suxarev, G.A.Pugachenkova, P.A.Goncharova, H.Ziyoev, M.K.Raximov, D.K.Mirzaahmedov va boshqalarni kiritish mumkin¹.

Mustaqillik davrida yaratilgan xonliklar tarixiga oid turkum adabiyotlar tashkil etadi, hunarmandchilik va savdoning ahvolining ma'lum jihatlarini ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan tadqiq etayotgan olimlardan H.Ziyoev, O'.Ahmadjonov, H.G'ulomov, H.Bobobekov, Sh.Vohidov, Q.Rajabov, N.Abdurahimova, G.Agzamovalarni² ta'kidlash o'rinli.

G.Agzamova O'rta Osiyoning medievistik tarixini o'rganishda savdo-sotiq va hunarmandchilik masalalariga ham qisman to'xtalib o'tgan, hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy tarixda tutgan o'rnini manbalar tahlili orqali yoritib berishga harakat qilgan³.

E.M.Pesherova o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyo hududidagi kulolchilik ishlari tarixini o'rganishga e'tibor qaratib, qadimgi va o'rta asrlardagi kulolchilik ishlari tarixiga baho bergan⁴.

N.A.Dmitrieva va L.I.Akimovalar qadimgi dunyo tarixida san'atning tutgan o'rnini tahlil qilib, antik davr kulolchiligiga ham baho bergan⁵.

¹Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент, 1961. – 221 с.; Мирзаахмедов Д.К. К истории художественной керамики Бухары. – Ташкент, 1990. – 230 с. ва х.

²Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милoddan аввалги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001; Аҳмаджонов Ғ.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Тошкент, 2003. – 270 б; Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 240 б.

³Агзамова Ғ.А. XVIII асрнинг биринчи чорагида Бухоро хонлиги: элчи Флорио Беневени талқинида // Ўрта Осиёнинг қадимги ва ўрта аср шаҳар маданияти анъаналари. Ўзбекистон Миллий университети археология кафедрасининг 70 йиллигига бағишланган илмий анжуманга йўлланган маърузалар тўплами. “Yangi nashr”, 2010.; Ўша муаллиф. Бухара – Амударё - Ургенч: к истории караванной дороги // Туркменская земля – колыбель древних культур и цивилизаций. Материалы международной научной конференции. Ашхабад, 1-3 октября 2008 г.; Ўша муаллиф. Ўрта Осиё хонликлари тарихи: манбаларга оид айрим чизгилар//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – Б.118-124.

⁴Пешерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М.-Л., 1989. – 240 с.

⁵Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.: Детская литература, 1988. – 256 с.

M.S.Hamidova XVIII-XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixshunosligiga oid tadqiqotlarida voha tarixini yorituvchi manbalar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib bergan¹.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi insoniyat tarixida kulolchilikning tutgan o'rniga qisqacha ta'rif bergan holda, mamlakatimizda shakllangan kulolchilik maktablari tarixi va an'alarini tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili orqali o'rganish va yoritib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining quyidagi vazifalari belgilab olindi:

- kulolchilik san'ati tarixi, an'analari va antik davrda kulolchilikning vujudga kelishi tarixini o'rganish;
- O'zbekistonda kulolchilikning rivojlanishi tarixi, bosqichlarini to'plangan manbalar ma'lumotlari asosida tahlil qilish;
- mamlakatimizda shakllangan kulolchilik maktablari va ularning an'alarini o'rganish;
- G'urumsaroy kulolchilik maktabining vujudga kelishi, o'zbek milliy hunarmandchiligiga qo'shgan hissasini yoritib berish;
- G'ijduvon kulolchilik maktabi tarixi va an'alarini o'rganish va tahlil qilib berish;
- Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi tarixi va uning Farg'ona vodiysi xalq hunarmandchiligining rivojlanishiga qo'shgan hissasini manbalar tahlili orqali yoritib berishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda to'plangan manbalar va ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida O'zbekistonda shakllangan kulolchilik maktablari tarixi, ularning an'analari qiyosiy tahlil orqali o'rganilib, bosqichlarga ajratildi. Mazkur bitiruv malakaviy ishdan kulolchilik tarixiga

¹Хамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихшunosligига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008. – Б.132-134.

qiziquvchilar, umumta'lim maktablari, AL va KHK lari tarix o'qituvchilari dars o'tishda, shuningdek, oliy o'quv yurti talabalari seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda foydalanishlari mumkin.

Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot metodlari. Mazkur bitiruv-malakaviy ishda mamlakatimizda shakllangan kulolchilik maktablari tarixi, an'analari ob'ekt sifatida tanlandi. Mavzu ustida ishlash jarayonida, umumlashtirish, tahlil qilish metodlari, tarixiylik, xolislik kabi tamoyillardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asoslari. Tadqiqotning nazariy uslubiy asoslarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida bayon qilingan xolislik, tarixiy xotira, haqqoniy tarixni yoritish¹ kabi tamoyillari muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida O'zbekiston tarixi fanining rivojlanishini asosiy uslubiy yo'nalishlari ifodalangan "O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi" kontseptsiyasiga va og'zaki tarixning nazariy va amaliy masalalarini yorituvchi tadqiqotlarga murojat etildi.

Bitiruv malakaviy ishining to'zilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning ilova qismida kulolchilik namunalarining rasmlari, shuningdek, "Power Point" dasturi asosida tayyorlangan taqdimotning elektron varianti diskda ilova qilingan. Ishning umumiy hajmi 60 betdan iborat.

¹Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ., 1998. – 168 б.

I bob. Kulolchilik san'ati tarixi: tarix va zamon

1.1. Kulolchilikning vujudga kelishi tarixidan

Kulolchilik qora loydan mo''jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Kulolchilik buyumlari sopol va keramika deb atalmish chinni, fayans hamda mayoliklardan tayyorlanadi. Sopoldan buyum ishlab chiqarish birinchi bor Misrda miloddan avvalgi 4 ming yillikda boshlangan. Chinnidan buyum ishlab chiqarish sirlarini xitoyliklar milodiy asr boshlarida bilib olishgan. Mayolika so'zi Ispaniyadagi Mayorka oroli va fayans so'zi Italiyadagi Faens shahri nomlaridan olingan¹.

Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idishg'tovoqlar yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma erlaridan bo'lgani uchun kulolchilikning keng tarqagan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin

¹Мирзаахмедов Д.К. Глазурированная керамика Бухары XIX вв. / Из истории культурного наследия Бухары. - Ташкент, 1990. – С.36

kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar¹. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Neolit yoki yangi tosh asrida odamlar faqat tabiat in'om etgan mahsulotlarni iste'mol qilish bilan chegaralanmay, balki o'zlari ham uni yaratishga, ko'paytirishga harakat qila boshlaydilar. Endilikda ovchilikdan tashqari, chorvachilik va dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshladilar. Ishlab chiqarish jarayoni kuchaya bordi, shu bilan birga, kishilarning ma'naviy olami, dunyoqarashi ham murakkablasha bordi. Bu asrda ham toshlardan qurol yasash muhim rol o'ynadi. Lekin endilikda toshni qayta ishlash, uni pardoqlash, shu asosda juda nozik buyumlar yaratishga ko'proq e'tibor berila boshlandi. Kulolchilik (keramika) ning paydo bo'lishi ham yangi tosh asrining muhim belgilaridan hisoblanib, ba'zan yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir².

Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, kontsentrik aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvon va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka — quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq — harakat, suv ramzi va h. k. Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib erga sanchib qo'yilgan. Eneolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlangan. Ayrim

¹Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. — М.:Детская литература, 1988. — С.25

²Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент:Ўқитувчи, 1986.- Б.118

erlarda kulolchilik dastgohlarining vujudga kelishi sopol buyumlar shaklining tekis va ko'rimli bo'lishini ta'minladi.

Temir asrida kulolchilik buyumlari qo'lda hamda dastgohda yaratilgan bo'lib, ularning yuzasini bezashda, o'yma va bo'rtma naqshlar, band va tepa qismlari uchun haykalchalar ishlatilgan.

O'tmishda tuproqdan, qorachiroq, shamdon, sarxona, jamashov, xum xamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan, lekin keyingi vaqtga kelib bularga ehtiyoj bo'lmagani uchun ular yo'qolib bormoqda. Hozir tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko'p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimtir, qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o'zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha guruxlarga bo'linadi¹.

Loy guldon - sershiralı loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bulib, juda loyi qo'shilgan bo'ladi.

Chinni loy - yoki oq loy - yarimfoyans bo'lib, qoramtir loy oqtosh va ishqor qo'shib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan boshkalar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy - o'tga chidamli qoramtir loydan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan har xil mozoikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy - shirachli loyga kvars qumi qo'shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog' tuproqqa qamish qozg'og'ini aralashtirib tayyorlanadi².

Ko'zgar loy – 60%-70% plastik yog'li loy va 30-40% sog' tuproqdan iborat bo'ladi. Undan xum, guldon, ko'za va boshqalar

¹Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989. – С.140.

²Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.:Детская литература, 1988. – С.134

tayyorlanadi. Kulolchilikda shamod, gulvata, bo'yoqlar, angob, charx, mo'yqalam, mola, katta mola, kichkina mola, sim, naqshin qolip, labgir, lagan qolip, pargor qalam, kojcord, taroq, tagi qalam, g'ujmak, tuppva va boshqalar ishlatiladi. Kulolchilikda loyni ustalar har xil texnologiyada tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilinib uni tepib, mushtlab pishiradilar. Loyni nam matoga loy tayyorlaydigan xona bo'lib uyni ichki qismidan hovuzga o'xshash uncha chuqur bo'lmagan jon bo'lgan. Bu hovuz pishiq g'ishtdan to'shaladi. Loyni har kuni, ya'ni 20 kungacha suv sepib pishiriladi va nam sholchani ustiga yopib qo'yilgan. Kerakligicha loyni tepib, mushtlab pishiriladi. Loyni yulib olib stol ustiga urib-urib pishiriladi, shunda loy ichida to'planib qolgan havo yo'qoladi. Agar loyda havo qolib ketsa, idishni pechkada pishirganda o'sha bo'shliq yana kattalashib idish teshik bo'lib qolishi mumkin.

Shuning uchun qancha ko'p loyni pishitilsa shuncha sifatli maxsulot olinadi. Kulolchilik charxida idishlar tayyorlanadi. Charx asosiy qurol bo'lib, u katta va kichik yog'och g'ildirakdan iborat bo'ladi. Yog'och o'q bilan birlashtiriladi. Kulol charxning pastdagi katta g'ildiragini oyog'i bilan aylantirib turadi. Yuqoridagi g'ildirakka loy qo'yib undan idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idishlar yaxshilab quritiladi. Chunki yaxshilab quritilmasa keyin pechda yorilib ketishi mumkin. Quritilgan idishlarni xumda qizdiriladi. Sirlanadigan idishlar sirlanadi yana xumdonda qizdiriladi. Qadimdan kulollar ma'lum idish yoki buyum bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladi. Masalan, kosagar, tandirchi, ko'zagar va boshqalar deb yuritiladi. Xorazm badiiy kulol ustalari qadimda o'ziga xos texnologiyasiga ega bo'lganlar. Ular koshin, bodiya xum va boshqa kulolchilik maxsulotlari ustida beriladigan sirni tayyorlash uchun yozning jazirama issiq oylarida ko'hna Urganch tomonlaridagi qum etaklariga chiqib haftalab chog'on

o'simligini to'plab uni yoqib, kulini olib kelganlar. Hozir bu o't juda kamayib ketgan. Bu o'simlikdan tashqari qora o'roqdan ham foydalangan. Sentyabr oylarida qora o'roq ayni shirachga to'lgan vaqtida faqat yashil patini yoqib kulidan ishqor tayyorlaganlar. Ustaxonaga olib keltirilgan chog'on va qora o'roqqa qum aralashtirib qo'lni namlab guvala qilinadi va xumbuzga qo'yildadi hamda uni yuqori darajada issiqlikda qizdiriladi¹. Natijada u toshga aylanadi. Keyin esa ikkinchi marta xumbuzning tokchasiga qo'yiladi. Yuqori darajada qizdirish natijasida u pastki oxirga oqa boshlaydi va u oppoq rangga o'tgan bo'lsa tayyor bo'lgani. Agar u qoramtir tusda bo'lsa shu jarayon yana qaytadan davom ettiriladi. Hosil bo'lgan oq toshsimon ishqorni tegirmonda un holiga keltirib maydalanadi. Bu ishqor uniga yangi bug'doy unidan atala pishirib qozonda qorishtiriladi. Qozonga suv solinib bulg'ab suyuqlik holiga keltiriladi. Hosil bo'lgan xom ashyo tabiiy ishqor siri deb aytiladi. Tadiiy ishqor siridan tayyorlangan mahsulot yuziga cho'mich bilan beriladi. Pechda bu sir 1000-1200 daraja issiqlikda loyga shunday kirishib ketadiki u issiklikka ham, sovukda ham o'z xususiyatini yo'qotmaydigan bo'lib qoladi. Kulolchilikka xos bo'yoqlar tayyorlash ham o'ziga xos texnologiyaga ega.

Oq rang – bu rang oq tuproq gilvati va 11% gacha oqtoshni mayda qumini qo'shib tayyorlanadi. Uni aralashtirib atala holda tayyorlab buyum yuziga tekis suriladi va keyin naqsh chiziladi.

Yashil rang - mis kuyundisi kukuni qo'rg'oshin sir va o'tga chidamli tuproq, ya'ni gilvata qo'shib tayyorlanadi. Mis kukuni avval qizg'ish rangda bo'ladi, xumbuzda pishirilgan yashil rangga aylanadi.

¹Темирходжаев Дж., Пулатов Б. Ўзбекистоннинг машхур кулолчилик мактаблари/ Тарих тафаккури. Тарихчи олимларнинг илмий-амалий мақолалар тўплами. VIII жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.155

Qora rang – qora rang 15% gilvata, marganets oksidi, lazur va qo'rg'oshin sirlarini qo'shib tayyorlanadi.

Sariq rang – yongan temir sop yoki mayda temir chikindilaridan foydalanib temir kukuni mis kozonga solinadi va unga gulvata, qo'rgoshin siri xamda suv solib ezg'ilab tayyorlanadi.

Havo rang - lojuvard, oq tosh yoki oq qum va gilvata qo'shib tayyorlanadi.

Maxsus loydan buyumlar qo'lda yasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproq jahonning hamma yerlarida mavjudligi deyarli hamma xalqlarda kulolchilikning keng tarqalishini ta'minladi. Kulolchilik bilan dastlab ayollar shug'ullangan, kulollik charxining paydo bo'lishi bilan erkaklar ham bu ishga jalb qilingan. Idishlar maxsus o'choq va xumdonlarda pishirilgan. Kulolchilikning sodda usullari Osiyoning tog'liq hududlarida yashovchi xalqlarda hozir ham mavjud. Neolit davriga oid qarorgohlarning qazib topilgan qoldiqlari o'sha davrda idishlarning tagi uchli qilib tayyorlanganligini ko'rsatadi (idishlar yerga suqib qo'yilgan). Eneolit davrida Sharq mamlakatlarida, Yunonistonda vafis sopol idishlar tayyorlash, sopol dan me'morlikda foydalanish avj oladi. Sirlash usullari kashf etilgach, kulolchilik buyumlarining badiiy qimmatini osha bordi.

Arxeologik materiallar kulolchilik mahsulotlarining asrlar davomida takomillashib borganini ko'rsatadi. Davr kulolchilik mahsulotlariga, uning turi va bezaklariga katta o'zgarishlar kiritdi. O'tmishda tayyorlangan shamdon, qorachiroq, sarxona, jomashov, xum singari sopol idishlarga ehtiyoj qolmadi. Guldon, tovoq, lagan kabi sopol idishlar va buyumlarga ehtiyoj katta. Me'morlikda ham kulolchilik mahsulotlari (koshin, parchin va boshqalar) keng ko'llanilmoqda.

Kulolchilikning vujudga kelishi va taraqqiyoti tarixini qadimgi Xitoy va Gretsiya davlatlari misolida yaqqol ko'rish mumkin¹.

Xitoyning eng qadimgi san'at namunalari bizgacha kulolchilik buyumlari orqali etib kelgan. Qo'lda, dastgohsiz yasalgan turli xum, ko'za, tovoq, vazalar rangdor naqshlar bilan bezab chiqilgan. Bu kulolchilik buyumlarining yuzasi spiralsimon, to'lqinsimon, to'rsimon chiziqlar bilan bezalgan, soddalashtirilgan odam, hayvon va qushlar rasmi ham ishlangan. Bunday kulolchilik yodgorliklarni Yanshao manzilidan topilgani uchun ham ular «Yanshao madaniyati yodgorligi» deb yuritiladi. Shu madaniyat keyingi Xitoy kulolchiligi rivojida ham muhim o'rinni egalladi. Xitoyning ayrim viloyatlarida kulolchilik buyumlari qora loydan dastgohda ishlangan. Bu buyumlar nafisligi va nisbatlarining qat'iyligi bilan ajralib turadi. Bunday idishlar Lunshan manzilidan topilgani uchun «Lunshan madaniyati yodgorliklari» deb yuritiladi².

Miloddan avvalgi 4—3 minginchi yillarda Xitoyda loydan ishlanib, olovda toblab pishirilgan odam haykallari (terrakotalar), odam boshini eslatuvchi ko'zalar, toshdan ishlangan turli badiiy buyum va haykallar uchraydi. Bular qadimgi Xitoy madaniyatining boy va rang-barang bo'lganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi 2 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida Xitoyda birinchi bor davlat paydo bo'ldi. Bu davlatni Shan (yoki In, taxminan, er. av. XVI asr — er. av. 1027 yillar) dinastiyasi boshqardi. Shan davrida oq loydan yasaliq, yuzasi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan turli xum va boshqa idishlar ham yuksak mahorat bilan ishlangan.

¹Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. —М.-Л., 1989. — С.24

²Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. — М.:Детская литература, 1988. — С.156

Antik dunyoning eng qadimgi tarixi «egey» yoki «krit-miken» madaniyati bilan boshlanadi. Bu madaniyat yodgorliklarining dastlabki arxeologik kashfiyotlari Miken va Kritda topilgan va mo'lligi tufayli bu san'at adabiyotlarda ba'zan krit-miken san'ati deb ham yuritiladi. Kritliklar kulolchilik san'atida katta yutuqlarga erishganlar. Kulolchilik buyumlarini maxsus bo'yoqlar bilan sirlab, yuzasini turli naqsh, dengiz hayvonlari va o'simliklarning tasviri bilan bezaganlar. Meduza surati tushirilgan xum bunga yaqqol misoldir¹.

Gomer davrida hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik va u bilan bog'liq bo'lgan vazaga gul solish san'ati ravnaq topgan. Dastlabki ishlangan kulolchilik buyumlari - vazalarda qadimgi grek amaliy-deqorativ san'atining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu ko'zalar yuzasiga geometrik naqshlar ishlangan bo'lib, ularning shakli ko'rkam, naqshlar kompozitsiyasi aniq, siluettlari qat'iy. Bu xususiyatlar buyumga o'egacha latofat kiritadi.

Diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi Dipilon vazalari (Afina yaqinidagi Dipilon darvozasi yonidan topilgani uchun shunday deb nomlangan) shunday harakterda ishlangan. Gomer asri kulolchilik buyumlari ko'zalarida geometrik naqshlardan tashqari, o'simliklardan ishlangan naqshlar, hayotiy voqealarni sxematik talqin etuvchi tasvirlar uchraydi¹.

Arxaika davri amaliy-deqorativ san'at hamda hunarmandchilikning haqiqiy gullagan davridir. Ayniqsa, ko'za va boshqa kulolchilik buyumlariga surat ishlash san'ati sohasida bu davr san'atkorlari juda katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Grek ko'zalari shakl va hajm jihatidan rang-barang bo'lib, turli maqsadlarda ishlatilgan va shunga qarab turlicha nomlangan. Ko'za yuzasiga

¹Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўқитувчи, 1986.- С.39

¹Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.:Детская литература, 1988. – С.156.

ishlangan suratlar tematikasi, asosan, mifologiyadan olingan syujet yoki hayotiy voqealarga bag'ishlangan.

Arxaika davrining ko'zga surat solish san'ati dastlabqora figurali vazalarda namoyon bo'ldi. Bunday vazalarga qoralak bilan turli tasvirlar ishlaganlar. Ayniqsa, qora figurali vazalar ishlash san'ati VI asrning II—III choragida rivojlanib, bu sohada attikali kulollar va rassomlar nom chikarishgan¹. Shunday mashhur ustalardan biri, rassom Klitiybo'lgan. U jahonga mashhur bo'lgan «Fransua vazasi»ni bezagan. Vaza yuzasiga 200 dan ortiq odam tasviri tushirilgan. Qora figurali uslubda ishlangan mashhur rassomlardan yana biri miloddan avvalgi VI asrning II choragida yashabijod etgan Eksekiy bo'lgan. Unipg yaratgan kompozitsiyalarigoh sokin hikoyanavislik bilan, goh o'ta harakatda tasvirlanganligi bilan harakterlanadi².

Rassom shu san'atda birinchi marta o'z qahramonlarining psixologik kechinmalarini yoritishga harakat qiladi. Eksekiyning ishlagan obrazlarida chiziqlar nafis, plastik, aniq va tiniqligi bilan xarakterlanadi. Eksekiyning «Qayiqdagi Dionis» deb nomlangan mashhur asari miloddan avvalgi 540 yilda ishlangan. Bu klik (klik— vino ichish uchun mo'ljallangan idish) o'zining juda to'g'ri topilgan shakli va detallarining bir-biriga mutanosibligi, tashqi va ichki bezagi buyumning mazmuniga mosligi bilan harakterlanadi. Klikning tashqi tomonida jang manzarasi va katta qilib ishlangan ikkita ko'z tasvirlangan. Bu ko'z sharob ichuvchini «yomon ko'zdan» saqlashi kerak. Ko'zaning ichki qismida esa qayiqda so'zib ketayotgan vinochilik va shodlik ma'budasi Dionis tasvirlangan³.

¹Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўқитувчи, 1986.- С.69

²Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.:Детская литература, 1988. – 120

³Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўқитувчи, 1986.- С.79

Miloddan avvalgi 540—530 yillarda qizil figurali vazalar ishlash keng tarqaldi. Bu vazaga gul solish san'atida realistik tendentsiyalarning ortib borishi sabab bo'ldi. Qizil figurali ko'zalarda tasvirlangan obrazlar, tasvirlar ko'zaning tabiiy rangi — pishirilgan loy rangida (qizg'ish, qizg'ish-jigar rang) qoldirilib, fon, qolgan bo'shliq esa qora lak bilan bo'yab chiqilgan. Bu uslub voqelikni real tasvirlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, miloddan avvalgi VI asrning uchinchi choragidan IV asrgacha davom etdi. Qizil figurali vazalarga ishlangan suratlarda hayotiy voqealarni tasvirlashga keng o'rin berilgan.

Klassika davrida amaliy san'at rivojlanishda davom etdi. Vazalar shaklining rang-barangligi ortdi. Ularning yuzasiga rasmlar solish bilan birga, turli bo'rtma tasvirlar ham tushira boshladilar. Rang berishda xam erkinlik sezila boshladi. Xromatik ranglar imkoniyatidan keng foydalanila boshlandi. Kumush, bronzadan turli idishlar ishlandi. Oltin suvi yuritilgan buyumlar hayotda keng qo'llanila boshlandi.

So'nggi klassika shu yutuqlarga yakun yasadi, asta-sekin vazaga gul solish san'ati inqiroega yuz tuta boshladi. Undagi individual o'ziga xoslik, fazilatlar yo'qola bordi. San'at asta-sekin hunarmandlik darajasiga to'sha bordi. Bu so'zsiz, umumellin ijtimoiy-siyosiy, madaniy inqirozi natijasi edi.

1.2. O'zbekistonda kulolchilikning rivojlanishi tarixidan

Qadimgi O'rta Osiyo san'ati va madaniyatini o'rganishda bizgacha saqlanib kelgan qal'a, saroy, turar joy va qabrlar bilan birga zardushtiylik dini bilan borliq bo'lgan turli ossuariylar (ostadonlar)deb ataluvchi odamlar suyagini saqlash uchun mo'ljallangan sopoldan yasalgan idishlar muhim faktik material bo'lib xizmat qiladi. Bunday ossuariylar bo'rtma va dumaloq tasvirlar bilan bezatilgan bo'lib, ba'zilarida esa hayotiy voqealarni aks ettiruvchi suratlar mavjud.

Afrosiyob va O'rta Osiyoning boshqa yerdarida topilgan arxeologik qazilmalar 9—12-asrlarda kulolchilik bu yerlarda ancha rivojlanganligini ko'rsatadi, 13-asrda mo'g'ullar hujumlari oqibatida nisbatan sekin rivojlangan kulolchilik 14—16 asrlarda ancha taraqqiy etdi. O'rta Osiyoning bo'linib ketishi o'zaro aloqalar susayishini keltirib chiqardi, lekin hunarmandchilik (ayniqsa, kulolchilik) rivojlanishda davom etdi. Turli joylarda kulolchilikning turlicha uslublari vujudga keldi. Xalq ustalari ko'plab idishlar tayyorlash bilan birga ularni yuksak did bilan bezadilar. Rossiyadan ko'plab chinni mahsulotlar keltirilishi O'rta Osiyo kulollari bozorini birmuncha susaytirdi. Biroq arzon sopol idishlarga bo'lgan talab, ayniqsa, me'morlikda kulolchilik mahsulotlarining keng qo'llanilishi kulolchilikning uzluksiz rivojlanishini taqozo etdi.

Qoratog', Panjakent, Samarqand, Kitob, Shahrisabz, G'ijduvon, Xorazm, Toshkent, G'urumsaroyRishtonda sopol idishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublari vujudga keldi. Bu markazlarda tayyorlangan kulolchilik buyumlari pishiq, chiroyli, nafis siri, ko'rkam naqshlari bilan diqqatni tortadi.

20-asrning 20-yillaridan kulollar mehnatini tashqil etishga e'tibor berildi. Toshkentda tajriba kulollik, Samarqandda kulollik ustaxonalari ochildi, Toshkentda o'quv ishlab chiqarish, badiiy kti ishga tushdi (1932), qisqa muddatli kurslar tashkil qilindi, kulollar tayyorlash, ularning malakalarini oshirish yo'lga qo'yildi. T. Miraliyev (Toshkent), R. Egamberdiyev, A. Hazratqulov (Shahrisabz), Muhammad Siddiq, Usmon Umarov (G'ijduvon) singari kulollar yoshlarga ta'lim berdi. Kulolchilikni tadqiq etish, rivojlantirish hamda yoshlardan kulollar tayyorlashda O'zbekiston xalq rassomi Muhiddin Rahimovning xizmatlari katta.

Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish usullariga ko'ra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Farg'ona (asosiy markazlari — Rishton, Furumsaroy), Buxoro-Samarqand (asosiy markazlari — Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Uba), Xorazm (asosiy markazlari — Madir, Kattabog' qishloqlari), Toshkent. Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o'zigagiva xos xususiyatlariga ega bo'lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan.

Farg'ona (Rishton)da kulolchilikning an'anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi, ishkrarli sir tayyorlash yo'lga qo'yildi. M. Ismoilov, I. Komilov, U. Ashurov, U. Qosimov, Sh. Yusupov, A. Vazirov, M. Saidov va boshqa ustalar yaratgan buyumlar (lagan, kosalar, don mahsulotlari uchun katta xumlar) shakl jihatidan ham, bezak jihatdan ham rangbarangdir.

G'urumsaroy kulolchilik buyumlariga bezakning mahobatli oydinligi va soddalik xosdir, bu maktab vakili usta M. Turopov sir tayyorlashdan tortib to naqsh chizishgacha bo'lgan barcha ishlarni faqat an'anaviy usulda bajargan, bu an'anani uning shogirdi V.

Buvayev va boshqalar davom ettirmoqda, yangi ijodiy yangiliklar yaratishda izlanmoqda (jumladan, mahobatli laganlar hajmini kichraytirish va boshqalar).

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi buyumlarining jarangdor nafisligida qo'rg'oshinli sir va sarg'ish-yashil, jigarrang bo'yoqlar muhim o'rin tutadi. "Afrosiyob sopoli" an'analariga asoslanib tayyorlanilgan buyumlar bezagida o'simliksimon naqshlar yetakchilik qiladi, handasiy naqshlar, hayvonlar tasvirlari kam ishlatiladi. Ular, asosan, G'ijduvon kulolchiligida qo'llaniladi.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi boshqa maktablardan sopol xushtak o'yinchoqlar ishlanadigan markazining borligi bilan ajralib turadi. H. Raximova an'analarini uning o'g'illari va shogirdi K. Boboyeva davom ettirmokda, ularning ijodida an'anaviylikni saqlagan holda o'ziga xos mahorat ham kuzatiladi, bu ranglarda, shakl mujassamotida, yechimning mukammalligi va o'lchamlarning barqarorligida namoyon bo'ladi.

Xorazm kulolchilik maktabi o'ziga xos badiiyligi, bezaklar rangi va ishlanish uslubi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi; uning milliy shaklli o'ziga xos buyumi bodiyadir; naqsh mujassamoti handasiy va o'simliksimon naqshlardan iborat, buyumning markaziy qismiga arabeska girih tushirish ushbu maktabga xos uslublardan. Usta R.Matchonov (Madir qishlog'i) buyumlarga to'q rang ishlatgan, buyum bezagida havo rang yoki rangning o'ziga xos to'q tusi ustunlik qiladi. S.Otajonov (Kattabog' qishlog'i) oq angobdan ko'proq foydalanadi.

20-asrning 80-yillarida kulolchilik markazlarida ishlar birmuncha susaydi. 1990-yillarda O'zbekistonda an'anaviy qadriyatlarga e'tiborni qaratilishi bu sohaning rivojlanishini ta'minladi.

O'zbekiston Respublikasida an'anaviy amaliy san'at asarlari ko'rgazmasi (Respublika yarmarkasi)ga asos solindi. 1995 yildagi 1-Respublika yarmarkasida (BMTning 50 yilligiga bag'ishlandi) barcha kulolchilik maktabining vakillari ishtirok etdi. Ustalardan R. Zuhurov (Denov), M. Turopov (G'urumsaroy), I. Komilov (Rishton), Alisher va Abdulla Narzullayevlar (G'ijduvon), Namoz va No'mon Oblokulovlar (Urgut), R. Matchonov (Xorazm), A. Raximov (Toshkent) maxsus tayyorlangan "Usta guvohnomasi"ga sazovor bo'ldi.

1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni barcha sohalar qatorida kulolchilik an'alarini rivojlanishiga samarali turtki bo'ldi.

O'zbekistonda kulolchilik mahsulotlari Toshkent, Samarqand, Quvasoy, Bog'ot chinni, Sherobod kulolchilik va Rishton badiiy kulolchilik zavodlari hamda Angren kulolchilik kombinatida ishlab chiqariladi. Yurtimizda Angren, Olmaliq, Oqtosh va Nurobodda kaolin konlari, Sho'rsuvda kuydirganda oqaradigan gil, Chotqol va Langarda pagmatit, Zirabuloq, Ziyovuddinda dala shpati, Dehqonobod va G'uzorda dolomit konlari mavjud.

O'zbek kulolchiligi uzok tarixga, ajoyib an'alar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsada uning ko'rinishi qismlarning aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmuninig birligi, uygunligi o'zbek kulollarining jahonga tanitib kelmokda¹.

Kulolchilik (keramika) ning paydo bo'lishi yangi tosh asrining muhim belgilaridan hisoblanib, ba'zan yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir.

¹Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов Узбекистана в XV-XVI в. -Ташкент: Фан, 1985.- С.102.

Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, so'zsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilai rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

Miloddan avvalgi VI—IV asrlarga oid kulolchilik buyumlari shu davrning birmuncha ko'p faktik materialidir. O'rta Osiyo erlaridan topilgan ko'pgina sopol buyumlar kulolchilik dastgohlarida ishlangan, maxsus pechlarda pishirilgan. Ular shu asrlarda kulolchilik hunarmandchiligi yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Bular ichida geometrik naqshlar solinib bezatilgan idishlar ayniqsa diqqatga sazovordir¹.

Miloddan avvalgi 250 yillarda Salavkiylar podsholigidan ajralib chiqqan Baqtriya keyinroq Hindiston erlarining katta qismini o'ziga qaratib olib, miloddan avvalgi II asrgacha mavjud bo'ldi. Bu davlatga greklar podsholik qilgani uchun uniig nomi Grek-Baqtriya deb yuritildi. Shu podsholikda grek san'ati ta'siri yaqqol seziladi. Amaliy san'atda ham Gretsiya san'atiga taqlid qilish yoki Gretsiya san'ati namunalaridan foydalanish keng avj oldi. Mahalliy ustalar grek kulolchilik formalaridan o'z ijodlarida keng foydalandilar².

Milodiy asr boshlariga kelib, O'rta Osiyo iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida jiddiy jonlanish boshlandi. Undagi qator madaniy markazlarda san'at va madaniyat borasida muhim yodgorliklar yaratildi. Shunday madaniy markazlardan biri Xorazm edi. Qo'yqirilgan qal'a, Gyaurlar qal'a, Tuproqqal'a harobalari, u erlardan topilgan tasviriy va amaliy san'at namunalari shu davrlarda (ilk

¹Усмонов Қ., Содиқов М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. — Тошкент: Шарқ, 2005. — Б.49

²Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). — Тошкент: Шарқ, 2001. — Б.102

feodalizm, ya'ni V asrga qadar) Xorazmda ijtimoiy hayotning birmuncha intensiv bo'lganligini ko'rsatadi³.

Qo'yqirilgan qal'a (To'rtko'lning shimoli-sharkiy qismidan 22 km uzoqlikda) er.av. IV—III asr barpo etilgan bo'lib, u o'ziga xos kompozitsiyaga ega. U dastlab dumaloq shaklda bo'lib, uning markazida diametri 44,4 metrli ikki qavatli bino, undai 14,5 metr uzoqlikda esa mudofaa devorlari bo'lgan. Bu devor keyinchalik mudofaa galereyasiga aylantirilib, tepa qismi ravoqli tom bilan yopilgan.

Bu erdan topilgan kulolchilik buyumlari ham diqqatga sazovordir. Ular shakl jixatdan rang-barang. Sopoldan ishlangan suv idishlari, turli ko'zalar juda nafis qilib ishlangan. Bu ko'zalarning bandlari hayvon shakllari bilan, yuzasi esa hayotiy voqsalarpi aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan.

VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa erlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yangi ko'tarilish davri bo'ldi.

IX—X asrlarda amaliy deqorativ san'at ham yuksak bo'lgan. O'rta Osiyoning ko'pgina erlarida kulolchilik ustaxonalari bo'lgan. Bu davrda kulolchilik ham mashhur bo'lgan. Ko'p hollarda oq fonga bo'yalgan sopol buyum yuzalariga qora qizg'ish —jigar rang bo'yoqlarda tasvirlar tushirilgan.

XIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoladi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O'rta

³Агзамова Г. Ўрта Осиё хонликлари тарихи: манбаларга оид чизгилар// Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008. – Б.118

Osiyo territoriyasida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Amir Temur xalq amaliy san'atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur, go'zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirdi¹.

Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o'zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham kulolchilik turli erlarda turlicha rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo'la boshladi. O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj seziladi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar².

XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni ishlarni ko'plab olib keltirilishi O'rta Osiyo territoriyasida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlarni me'morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ladi. Ular sopol ishlarini sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik maxsulotlarining sifatliligi, chiroyliligi, naqshlarining nafis va ta'sirchanligi bilan shuxrat qozondilar. 1930 yilda Toshkentda

¹Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.204

²Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М.-Л., 1989. – С.140

eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib u er xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi (1943 yilda Shahrisabzda o'quv-ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi). Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sidqidildan o'rgatdilar. Bular rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, g'ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, Toshkentlik Turob Miraliev, Shahrisabzlik Rustam Eganberdiev, Karim Xazratkulov va boshqalar edi¹.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Sopol buyumlarni sirlab bezashning o'ziga xos uslublari vujudga keldi.

XX asrda boshlaridan bugungi kunlarimizgacha Xorazmda Ko'hna Urganch (marxum Eshmurot usta), Xiva, Madir (Xonka yaqinidagi qishloq) va Kattabog' (Yangiariq) kulollar maktabi foaliyat ko'rsatmokda. Xorazmda bu qadimiy san'at avlodidan – avlodga an'ana tariqasida o'tib kelgan va hozirgi kunda ham rivojlanib takomillashib kelmokda.

XX asrda Xorazm kulolchilik maktabi rivojlanishida Rahimbergan Matchanovning o'rni tengsizdir. Xorazm kulol ustalari qadimda o'ziga xos texnologiyaga ega bo'lganlar. Ular koshin, badya, xum va boshqa kulolchilik maxsulotlari ustiga beriladigan sirni tayyorlash uchun yozning jazirama issiq oylarida qum etaklariga chiqib xaftalab «chag'on» o'simligini to'plab uni yoqib kulini olib kelganlar. Bu o'simlikdan tashqari «qora o'roqdan» foydalanilgan. Sentyabr oylarida «qora o'roq» ayni shiraga to'lgan vaqtida yashil patini yoqib kulidan ishqor tayyorlaganlar.

¹ Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре. - Ташкент: Фан, 1976. – С.148

Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. 40 yillarda G'ijduvondagi "Namuna", Rishtonda "Yangi hayot" artellari faqat jumhuriyatimizda emas, balki butun dunyoga mashhur edi.

Bundan tashqari bu davrda xususan, 1957 yildan vohada faoliyat yuritgan sovet FA Etnografiya instituti hamda 1963 yildan boshlab esa ToshDU(hozirda O'zMU)ning maxsus ekspeditsiyasi faoliyati natijasida to'plangan moddiy manbalar va ular tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlarda o'lka tarixining turli sohalari va davrlariga oid qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ekspeditsiya a'zolaridan M.E.Masson, S.B.Lunina, K.M.Obruchev, N.S.Sodiqova, A.I.Sidorenko, O.A.Suxareva, K.Tursunaliev, Z.Fayzieva, G.L.Chepelovskaya, T.Abdullaev, V.Balkov, P.A.Goncharova, V.L.Voronina, N.S.Grajdarkina, D.Mirzaahmedov, E.M. Pesherova, M.K.Raximov tomonidan Qashqadaryo vohasining so'nggi o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorliklarida keng qamrovli qazish ishlari 1980-yillardan olib borila boshlandi. 1985 yildan Yakkabog' hududidagi Beklitepa yodgorligi, 1989 yildan boshlab esa Shahrisabz hududidagi O'rtaqo'rg'on yodgorligi ko'p yillik tadqiqotlar ob'ekti bo'lib qoldi, bu erlardan ko'plab kulolchilik buyumlari topilgan¹.

Ayniqsa kulolchilikni tadbiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

Muhiddin Rahimov - Toshkent kulolchilik maktabining mashhur kulollaridan biri (1903). Kulol, san'atshunos, Rassomlar uyushmasining a'zosi, xalq rassomi kulolchilik hunarini qarindoshlardan o'rganadi. Turkiston xalq xo'jaligi kengashi

¹Хамидова М.С.XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси хунарамандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент,2008. – Б.133.

qoshidagi Toshkent badiiy hunarmandchilik maktabi (1918-20), Moskva Silikatlar instituti (1924-26)da va Leningrad(Sankt-Peterburg) Keramika instituti (1927-29) da o'qigan. U Samarqand va Toshkentdagi qadimiy me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi. Rahimov ijodida an'anaviy o'zbek kulolchiligi bilan zamonaviy sovet sopolchiligi uyg'unlashgan. Ijodining dastlabki davrida yaratgan buyumlari (yirik shaklli erkin hamda quyuq bo'yalgan naqsh bezaklari) da yorqin zamindagi ko'k, yashil, sariq gullar jilosi ajoyib kompozitsiya hosil qiladi. O'rta asrlar kulolchiligini yaxshi kurgan Rahimov ana'anaviy lagan, guldon va yangi shaklli bezak idishlar, portretli sovg'a buyumlar yaratdi, ularning bezagida o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda mazmun, hayvon shakllari va yozuvli tasvirlardan mohirona foydalanadi. Sopol materiali va bo'yoqlarini o'rganish yo'lidagi izlanishlar samarasi sifatida bir qator asarlar maydonga keldi, masalan, 1961 yilda rus tilida "Xudojestvennaya keramika O'zbekistana" asari va boshqalar. U Hamza Nomidagi san'atshunoslik institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan (1965-71), Toshkent teatr va rassomchilik san'ati instituti (1958-61) va P.Benkov nomidagi Jumhuriyat badiiy bilim yurtida dars bergan (1952-76)¹. Rahimov yaratgan sopol buyumlar Moskvadagi sharq xalqlari san'ati muzeyi, Leningraddagi etnografiya muzeyida, O'zbekiston jumhuriyat muzeylarida saqlanadi. U Hamza mukofoti laureati (1977).

Xorazm kulolchilik san'atiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri Raimberdi Matjonovdir.

Raimberdi Matjonov – Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O'zbekiston amaliy bezak san'atida alohida o'rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqa

¹Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиқов ва бошқ.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарқ, 2000.- С.178

shaharlar kulolchilik maktablaridan o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyalari, koloriti, dinamikligi kishilarga estetik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutadi. Xorazmda bu qadimiy san'at avloddan-avlodga an'ana tariqasida o'tib hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Ana shunday badiiy kulolchilik an'anasini davom ettirib kelayotgan Xorazm kulolchilik maktabining yirik vakillaridan biri rassomlar uyushmasining a'zosi, O'zbekistonda xizmat kursatgan madaniyat xodimi Raimberdi Matjonovdir¹.

Raimberdi Matjonov Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlog'ida 1909 yili kulolchilar oilasida dunyoga keldi. O'sha davrda Madir qishlog'ida o'n besh kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda saksondan ortiq kulollar ishlar edi. Koshin pishirishda o'sha davrda nom qozongan ustalar Usta Bolta Matrizaev, Bolta Vaisov, Matjon Qulmatovlar bor edi. Matjon kulolning o'g'li Raimberdi o'z otasidan kulolchilik sir-asrorlarini o'rgana boshladi. U avval loydan har xil o'yinchoqlar, shakllar yasagan bo'lsa, keyinchalik ixcham bodiya, koshinni o'rgandi. Kulolchilik sir-asrorlarini olti yil deganda o'rganib, Eshim kulolning oq fotixasini oldi. O'zi mustaqil idish va koshinlar ijod qila boshladi. 1930 yili R. Matjonov kooperativ arteliga kirib kulolchilik ishlarini davom ettirdi. O'sha davrda kullar juda kamayib ketgan edi. Uning bu og'ir ishlariga turmush o'rtog'i yordam berardi.

Usta naqqoshlik sir-asrorlarini mukammal o'rgandi. U shu o'rgangan naqshlarini kulolchilik buyumlariga qo'llashga astoydil intilib, XIX-XX asr Xiva koshinkorlik an'anasini boyitadigan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalandi. U ranglarni tayyorlash texnologiyasini ham juda yaxshi bilar edi. Idish tayyorlangandan so'ng qo'lda va shtamp yordamida

¹Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиқов ва бошқ.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарқ, 2000.- С.213

naqsh chiziladi, unga sir berilib oftobda quritilib pechda qizdiriladi. Usta sirni o'zi tayyorlardi. Qoraqmuga borib, chog'on yoki kirchop yig'ib darhol o'sha joyda yoqib kulini ustaxonaga olib kelib maydalangan shisha uniga qo'shadi. Ya'ni uch qism kulga bir qism shisha shisha kukuni qo'shiladi. Uni biror idishda suv bilan aralshtirib tayyorlangan bodiyaga surtiladi. Keyin bodiyani o'tda pishirishda o'sha yumaloq suyuqlik o'tga tashlanadi. U o'tda bodiyaga urilib rangini o'zgartiradi. O'sha qum poroshogini suv bilan aralashtirib, sovutiladi hamda tozalanadi. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlaydi, so'ngra bodiya sirtiga surkaydi. Kulol Raimberdi Matjonov shu texnologiya asosida loydan xum, ko'za, tog'ora, chanoq, choynak, piyola, oftoba, bodiya va boshqa xilma-xil badiiy buyumlar tayyorladi. Xalqimiz "shogirdsiz usta mevasiz daraxt" deb bejiz aytmagan. Ustani Xorazmda sermeva daraxtga o'xshatishadi, chunki juda ko'p shogirdlar etishtirib chiqaradi. O'zbekiston xalq ustalari birlashmasi Raximberdi Matjonov ustaxonasida xunarmandchilik maktabi ochtirib, u erda xunarmandchilik sir-asrorlarani o'rgatdi. Uning shogirdlari Davron Sa'dullaev, Amin Mirzaev Maryamjon Matjonova, Mukarrama Sa'dullaevalar hozir badiiy kulolchilik san'atini rivojlantirishda katta hissa qo'shmoqdalar. Tarixiy obidalarni ta'mirlashda usta kulolning xizmatlari katta. 1956 yili Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasini ta'mirlashda qatnashdi. U gumbazning pastki qismi uchun qadimgi uslubda zangori rangda koshinlar tayyorlab bergan, ular hozirgi kunda avvalgidek rangini yuqotmay turibdi. Kulol yana ko'hna ark darvozasining ikki minorasini va me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi¹.

¹Агзамова Г.А. Бухара – Амударья – Ургенч: к истории караванной дороги // Туркменская земля – колыбель древних культур и цивилизаций. Материалы международной научной конференции. Ашхабад, 1-3 октября 2008 г. – С.28

1975 yili xalq ustasi kumush medali bilan taqdirlandi. 1970 yildan beri rassomlar uyushmasining a'zosi Usta Raimberdi Matjonov sehrli qo'llarida sayqal topgan badiiy kulolchilik buyumlari Respublikamizning va boshqa chet ellarda masalan Vengriya, Frantsiya, Chexoslovakiya, Hindiston, Italiya, Mongoliya kabi xorijiy mamalakatlarda namoyish etib faxrli o'rinlarni egalladi. Uning bodiya, ko'zacha, chanoq, koshin va boshqalari Moskva, Leningrad, Toshkent, Xiva shaharlaridagi muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Bugungi kunda kulochilikning yangi turi dekorativ monumental san'at bo'lib, uni manzaraviy kulolchilik deb ham aytish mumkin. Ma'lumki sopolning bu turi O'zbekistonda 70-80 yillarda kirib keldi. Uning eng go'zal namunalari Toshkent shaxrining chiroyiga chiroy qo'shdi. Ayniqsa Toshkentlik ustalar Kedrin, A.Raximov, E.Abramov, Yu.Kim, S.Sultonmurodov, S.Qarlixanova, F.Toshmuhammadov bu san'atning mumtoz namunalarini yaratib ko'p sonli san'at muxlislarining olqishiga sazovor bo'lishdi.

Har bir hunarni o'ziga xos mashaqqatli va o'ziga xos sir-asrorlari bo'ladi. Qadimdan ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o'z shogirdlariga o'rgatib o'zga bolalarga o'rgatmaganlar. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida kulolchilik sir-asrorlarini o'rganib har bir mahsulotni ayniqsa sifatiga, badiiyligicha, foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyligiga alohida e'tibor berib kelganlar. Shuning uchun ular tayyorlayotgan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me'morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyligi dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Ha, bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar.

II bob. Kulolchilik san'ati maktablari: tarix va zamon

2.1. Qashqadaryo viloyati Kasbi kulolchilik maktabi

Donishmandlik sharq xalqlarining qon-qoniga singib ketgan fazilat. Qadimgi Kasbi shaharchasini aylanib, ko'zdan kechirgan kishining xayolidan ana shunday o'ylar beixtiyor kechadi.

Kasbining qadimgi imoratlari Qashqadaryo viloyat Kasbi tumanining shundoqqina chekkasida qad ko'tarib turibdi. Uning tarixi mana bunday, shaharcha miloddan avval bunyod etilgan. Bu haqda qo'rg'on yaqinida bir necha bor o'tkazilgan arxeologik qazilmalar guvohlik beradi. Bu erda qachonlardir qal'a bo'lgan. Hozirgi mavjud qo'rg'on ana shu qal'aning bir qismi, xolos. Undagi nuragan imoratlar kishi xayolini olis asrlarga etaklaydi.

Ajab, ba'zida tarix xuddi afsona so'zlayotganga o'xshaydi. Bu erda, shuncha davrlar o'tishiga qaramay, XI-XIV asrlarda qurilgan Sulton Mir Xaydar yodgorlik ansambli va XIV asrda bunyod etilgan machit juda yaxshi saklangan. Kasbilik komil kishilarning kabri ustiga kuyilgan yodgorliklar aloxida qiziqish uygotadi. Did bilan tashroshlangan qabr toshlariga kishilarning ismi sharqona nozik xusnixatda mahorat bilan yozilgan. Marmar yodgorliklarga solingan naqshlar uzoq asrlarda yashagan ustalarning yuksak didi va san'atidan avlodlarga tulib-toshib suzlaydi. Qadimgi Kasbi ko'chalarida yurish juda qiziqarli, har bir hovli, har bir gumbaz, uylarning har bir devori qarshisida bir daqiqa to'xtab qolasan, xayolan o'rta asr voqealari, odamlari bilan uchrashib, ularning tashvishlarini, quvonch va g'amlarini tuyasan. Shundoqqina gumbaz sahnining qarshisidagi baland tepalik necha martalar sayillarning guvohi bo'lgan va necha martalar yulduzlarga elka tutgan. O'rta asrlarda Kasbi ana shunday

bo'lgan va u bizning kunlarimizgacha mavjud obidalarga o'z izlarini saqlab qolgan.

Kasbining yana bir diqqatga sazovor joyi borki, bu sardobadir. Sardoba sharkda suv saqlaydigan birdan-bir joy hisoblangan. Bunday katta suv sig'imli hajmdagi sardobani boshka biron joyda uchratish qiyin. Suvni asrash mumkin bo'lgan bunday nodir "imorat" inson aqlining mevasi bo'lib, shar shaklida qurilgan. Kasbidagi ana shu sardoba xajmi jihatdan Pulkovo observatoriyasi gumbazidan bir necha bor katta bulib, tsilindrning diametri 16 metrdan uzun. Sardobani qurish uchun ishlatilgan g'ishtlar juda katta issiqlikda pishirilgan va suvda uvalanmaydigan holatiga kelgunga qadar qizdirilgan. G'isht uchun tuproq esa Amudaryo etaklaridan olib kelingan¹. U maxsus usullarda qorilib kuydirilgan, uzoq muddat olovga qo'yilgan, so'ngra bir yillab oftob egan. G'isht qiyomida qotib, hech qanday darz ketmagan takdirdagina qurilishga yaroqli hisoblangan. G'ishtlarni terish uchun ishlatiladigan qorishma ham alohida usul usul bilan ishlangan, ya'ni unga hayvonning suti va tuyaning juni kushib tayyorlangan. Ayni shunday qorishmagina suvga chidamli bulib, inshoot mustaxkamligini ta'minlaydi. Suvni filtrlab, toza saklagan sardobaning uchdan ikki qismi gumbaz shaklida er satxidan yukoriga chikib turibdi, kolgan qismi erning ostida. Yomg'ir suvlari oqib kirishi uchun uning yonlaridan darchalar qo'yilgan va ular suvni shamollatib turish vazifasini ham bajaradi. Suvni bunday asrash usuli O'rta Osiyoning daryo va buloq, kanallari bo'lmagan dasht joylarida uchraydi. Kasbidagi sardobaga butun qish yog'in-sochinlaridan katta xajmda suv to'plangan va u Qarshi dashti sharoitida, suvning tomchisi oltinga teng bo'lgan yoz oylarida juda asqotgan.

¹Хамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси хунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008. – Б.132

Qarshi vohasida Kasbining paydo bo'lishi tasodifiy emas. Chunki u Samarqanddan Hindistonga, Buxorodan Afg'onistonga, Rossiyadan Eronga o'tadigan karvon yulida joylashgan. Yana shu manzillarga otlangan har qanday sayyoh albatta suv ichib, dam olish uchun Kasbiga qo'nmasdan o'tmagan.

Xuddi ana shu munosabat tufayli Kasbida kulolchilik rivoj topgan. Kulol bu erning dastlabki hunarmandi, asosiy kishisi sanaladi. Uning dastgohida sayqal topgan idishlar bu erdan o'tgan karvonning nazariga tushgan va unga yo'lda asqotgan. Ma'lumki, har qanday bosqinchi ham, har qanday qudratli lashkar ham suvsiz uzoqqa borilmaydi. Shuning uchun ham suvni zarga tenglashtiriladi. Kasbi kulollari yasagan xumlarning har biriga 50-100 litrdan suv ketadi¹.

Kulolchilik hunar ham oson, ham qiyin. Osonligi shundaki, u hamma narsani tuproqdan yasaydi, qiyinligi esa, ta'bir joiz bo'lsa, kulol - insonning mexanizatsiyalashgan mehnatiga asos solgan kishidir. Chunki uning oddiy buyum yasash niyatidan ixtiro qilish fikri tug'ilgan, ya'ni narsalar yasash jarayonida dastlabki mexanik dastgohni joriy qilgan. Qancha-qancha hukmdorlar beiz o'tgan, qanchalab shohlar unutilgan, lekin kulollarning hunarlari avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. U dastgoh yonida o'tirib, qadim zamonlardan beri tuproqqa sayqal berganibergan.

Bugungi kunda bu erda kulollarning o'nlab sulolalari bor. Qishloqdan o'tarkansiz, diqqatingizni hovlilarning devorlariga suyab ko'yilgan ko'zalar tortadi. Ular orasida yarim litrdan tortib, to'rt-besh chelak suv ketadigan xumlar ham uchraydi. Sardoba XIV- XV asrlarda qurilgan, degan taxminlar bor. Uning chor atrofida sopol parchalari tuproqqa qorishib yotibdi. Bu parchalar ko'pgina urushlardan,

¹Хамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси хунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008. – Б.134

suronlardan nishona. Shu bilan birga bu erda katta bozor bo'lganidan ham dalolat beradi.

Oloviddinning sexrli chirog'i xaqida kim bilmaydi, deysiz. Aytishlaricha, Oloviddin ham Kasbida tug'ilib, shu erda yashagan ekan. Uning otasi sardoba atrofida suv sotar ekan... shuning uchun bo'lsa kerakki, bugungi kunda ham Oloviddinning o'sha sahrli chirog'ini Kasbidagi har bir xonadonda uchratish mumkin. To'g'ri, bu chiroq bugun uylarni yoritish uchun ishlatilmaydi, u faqat otabobolardan qolgan muqaddas yodgorlik sifatida saklanadi¹.

Bu chiroq deyarli har bir kulolning do'koniga osig'liq. Ularning do'koni hamma narsa hisobga olingan holda mohirlik bilan qurilgan bo'lib, eni 2,5-3 metr, uzunligi 5-6 metr keladi. Do'konning burchagida mo''jazgina xumdon o'rtasida dastgoh, xuddi shu erda yillarning suronini qog'ozga tushiradigan yilnomachiday kulol goh o'tiradi, goh loyga sayqal beradi va buning natijasida xum va ko'zalar yasalib, naqshlar bilan bezaladi. Uning ishi shoshqaloqlikni yoqtirmaydi, unga nechog'li hushyorlik bilan, ko'ngil berib ishlash kerak. Shundagina kulol qo'lidan chiqqan har bir buyumni chertsangiz jaranglaydi.

Kasbi qishlog'i va u erda mavjud kulollikning qadimiyligi ko'plab yozma manbalarda qayd etilgan. VIII-XII asrlarda yashagan Arab geograf va sayyohlari Istaxriy, Ibn Xavqal, Muqaddasiylarning yozuvlariga ko'ra, ko'hna Kasbi manzili o'rniga vujudga kelgan Kasbi qishlog'i ilgari Nasafdan ham katta bo'lgan, unda bir necha yodgorliklar saqlanib qolgan. Ular katta tepalik Kasbi shaharchasi ortida bo'lgan; bu haqda Qarshi shaxri gullab yashnagan paytlarda Mahmud ibn Vali shunday yozgan: "Abdullaxon shayboniy hukmronlik

¹Темирходжаев Дж., Пулатов Б. Ўзбекистоннинг машхур кулолчилик мактаблари/ Тарих тафаккури. Тарихчи олимларнинг илмий-амалий мақолалар тўплами. VIII жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.157

qilgan kezlarda ... uning tasarrufida qishloq va ovullar ko'p edi. Ular jumlasida Kasbi xuddi jannat bog'ni eslatardi".

Lekin har qanday kitobdan ko'ra ham Kasbi o'zining o'tmishi haqida o'zi to'laroq ma'lumot beradi, bunga uni borib ko'rgan, ko'chalarda yurgan, saqlanib qolgan yodgorliklari oldida bir lahza turgan odam ishonch hosil qiladi. Ajdod-ajdodi bilan qishloqning tarixiy yo'llarida hamqadam bo'lib kelayotgan kulollar esa sizga bu erning o'tmishini yaxshiroq bilishingizga o'z hunarlari va hikoyalari bilan ko'maklashadilar.

Ustozoda Bozor Itolmasov 1947 yil 15 may Kasbi tumani kulol-hunarmand oilasida tavallud topgan. 1954-1964 yillarda Kasbi tumanidagi 20-o'rta maktabda ta'lim olgan. Bozor Itolmasov kulol oilasida tug'ilganligi sababli yoshligida shu kasb ichida o'sib ulg'aydi. Ota-bobosi yasagan sopol ko'za xumlarni ko'rib uning kulolchilik san'atiga bo'lgan qiziqishi erta boshlandi. U kulolchilik san'atini otasi Itolmas Ochilovdan o'rgangan. 1961 yildan boshlab mustaqil ravishda sopol buyumlarni yasay boshladi. Uning bir qancha ishlari elga manzur bo'lib, xalqning kundalik turmushida foydalanib kelinmoqda. Bundan tashkari Qashqadaryo viloyati amaliy san'at muzeylarida yangi ijodiy buyumlari saqlanib kelinadi. 1996 yildan bir qancha respublika, viloyat va shahar ko'rgazmalarida qatnashib keladi. Hozirda Qashqadaryo viloyat "Hunarmand" uyushmasiga a'zo. Ustozoda Bozor Itolmasov ota-bobolaridan qolgan hunarni davom ettirib, Kasbi kulolchilik san'atini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda¹.

Bu ish bilan shug'ullanuvchilarni eng ulug'i sobiq hunarmand uyushmasi a'zosi Anbara Sattorova. Usta 1910 yil Kasbida kulol

¹Хамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси хунармандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008. – Б.139

oilasida tug'ilgan. U kishi yasagan uyinchoqlar bilan o'ynamagan Kasbida topilmasa kerak. Bayramlarda, sayllarda usta o'zi yasagan o'yinchoqlar bilan bolalar dilini xushnud etganlar. Bayramlar boshlanaversa ammamizni uzoq joylarga o'z ishlari bilan olib ketishardi - deydi ustaning jiyani Baxtiyor Sattorov¹.

Usta Ochilov Faxriddin 1966 yil 24 may Qashqadaryo viloyat Kasbi tuman Kasbi qishloqida usta kulol Itolmas Ochilov oilasida dunyoga keldi. Uning bolalik yillari shu qishloqda o'tdi. 1972-1982 yillarda Chexov nomidagi 20-maktabda tahsil olgan. Yosh Faxriddinni uyda yasayotgan bir-biridan go'zal ko'zalar, xumlar, kosalar va shunga o'xshash uy-ro'zg'or buyumlari unda kulolchilikka bo'lgan ishtiyoqini uyg'otdi. Otasi yordamida loyna qanday tayyorlash usullarini chuqukr o'rganib oldi. 1972-1982 yillarda Chexov nomli 20-o'rta maktabni tamomladi. Bolalik paytlarida loydan turli o'yinchoqlar yasashdan loy bilan ishlashni o'rganib bordi. Yosh ustaning birinchi yasagan guldoni unda o'ziga xos zavq bag'ishladi. So'ngra ko'za, xum, kosa va boshqa kulolchilik buyumlari yasashni mashq qila boshlaydi. Hozirgi kunda ustani o'z ishining mohir ustasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ustaning qo'l ochtidagi shogirdlari ham ustani izidan borib uning ishlarini davom ettirmoqda².

Kasbi kulollari loydan turli buyumlardan tashqari har xil bolalar uchun uyinchoqlar yasash bilan ham shug'ullanadilar.

¹Хамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси хунарамандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008.– Б.134.

²Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989. – С.178

2.2. G'urumsaroy va Rishton kulolchilik maktabi

Farg'ona vodiysi xalq hunarmandlarining kulolchilik buyumlari yuz yillar davomida mashhur bo'lib kelgan. Rishton va Quva kulolchilik sanati maktabi qatorida G'urumsaroy kosiblarining ishlari ham shuhrat qozongan. Hozirgi paytda bu qishloq Namangan viloyati Pop tumanidagi kulolchilik ishi markazlaridan biri hisoblanadi.

O'tgan asrning o'rtalarida deyarli unutilgan kulolchilik kasbi keyingi o'n yilda qayta tiklandi. Shu erlik O'z kasbining mohir ustalari M.Rahimov, M.Tursunov, X.Hakimov, H.Sotimov zamonaviy G'urumsaroy kulolchilik sanati maktabiga asos soldi.

Ota-bobolari hunarini davom ettirayotgan yosh kosiblar orasida Vahobjon Buvayev o'z iqtidori bilan Malohida etiborga sazovor. Uning milliy uslubda yasalgan va qadimgi ustalar usullaridan foydalangan holda bezatilgan sopol buyumlari O'z sifati hamda yorqin ranglari bilan ajralib turadi. V.Buvayevning ishlari Respublika amaliy sanat muzeyi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi Zamonaviy sanat markazida tashkil etilgan ko'rgazmalarda namoyish etildi¹. Poytaxtimizda o'tkazilgan uchta shaxsiy ko'rgazmasi, "Tashabbus" ko'rik-tanlovi, Mustaqillik kuni va Navro'z bayramiga bag'ishlangan ko'rgazmalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki Vahobjon ustaning haqiqiy istedod sohibi ekani, qadimgi kulollarning boy ananalarini o'lashtirganidan darak beradi. Bundan tashqari G'urumsaroylik bu usta o'quv ustaxonasi tashkil etib, yosh avlodga hunarmandchilik sir-asrorlarini O'rgatmoqda. G'urumsaroy va unga yaqin qishloqlardan ellik nafarga yaqin o'g'il-qiz bu yerda kulolchilik ishini o'rganmoqda. Ular yasagan milliy oshxona buyumlari ko'pgina ko'rgazmalarda

¹Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиқов ва бошқ.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарқ, 2000. - Б.206

namoyish etildi, ayrimlari esa sovg'a sifatida xorijiy shaharlarga jo'natildi.

Usta Muhammadtoir Rizomhammad o'g'li (1898-1980) Toshkent shaxrining eski shahar mavzesidagi Chig'atoy mahallasida usta kulol oilasida dunyoga keldi. Otalari Rizomhammad usta kulol edi. Onalari Xayri ona uy bekasi edi. Etti yoshida mahalladagi eski maktabga ukishga keldilar. Uch yil eski maktabda savod chikarib, mulla Toir nomini oladi. So'ng otasiga yordam berib yurib kulolchilikning hamma sir-asrorlarini urganganlar. 1917 yil ustaning otasi olamdan utadi. Kulolchilik kasbi bilan oilani tebratish Toir otaning zimmasiga to'shadi. Uch singil va bir uka ustaning qaramog'ida voyaga etdi. 16 yoshlarida 1914 yil oila kurgan. Ayollari Mirsulton qizi Paraxat ona bilan 5 o'g'il va 4 kizning otasi bo'lganlar. Bolalarini hammasini kulolchilik kasbi orkali voyaga etkazib, uy-joyli kilganlar. Kulolchilik kasbi bilan umrlarining oxirigacha shugullanganlar. Asosan xalq extiyoji uchun zarur bo'lgan oshxona buyumlari yasaganlar. Usta bu idishlarni oddiy usulda charx deb atalgan kurilma yordamida yasaganlar. Usta tuprokni Qora Qamish jari yakinidan qoramtir rangdagisini olib kelganlar va sopol buyumlar yasaganlar. Xumdonga o'tin va kipik yokilgan. Pishirilgan sopol buyumlar eski shahar rastalarida xalq iste'moli uchun sotilgan. Savdo rastasida utirgan ustani kurgan kino rejissyorlar Alisher Navoiy filmida ishtirok etishga bir necha bor taklif kilishgan. Ustadan rad javobini olishgach, ular ustani kiyofasini fotoga tushirib ketishadi. 1980 yil usta 82 yoshida olamdan o'tdi¹.

Kulolchilik Sharkning eng kadimiy va navkiron san'atidir. Bu qora loy saxovat va xalollik extiyojini uz zimmasiga olgan farovonlik, tukinlik, rizk-ruz, guzallikni eng oliy kurinishi san'atining zaminidir.

¹Алимова Д., Филанович М. Тошкент тарихи. Қадимги даврдан бугунгача. – Тошкент, 2009. – С.145

Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan fark qiladi. O'zbek kulolchiligi uzok tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlar sodda bulsada, uning ko'rinishi kismlarining anikligi, mutanosibligi, saklanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunning birligi, uygunligi o'zbek kulollarini jaxonga tanitib kelmokda. Kulolchilik xunari loydan piyola, kosa, tovok, kuza kabilarni tayyorlaydigan soxa bulib, u uzok tarixga ega. Maxsus tuproqni uta kizdirganda toshsimon bulib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda kadimdan bilganlar. Ular avval loydan idishlar yasab gulxanda kizdirib pishirganlar.

Tuproq jahonning hamma erlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarkalgan bulib, dastlab bu xunar bilan ayollar shugullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3 ming yillikning boshlarida ixtiro kilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shugullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoklarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Neolit davrida idishlarning tagi uchlik kilib yasilib erga sanchib kuyilgan. Eneolit davrida esa Shark mamlakatlarida xamda Kadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlashgan¹. VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyob va O'rta Osiyo mamlakatlaridan topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atda rivojlandi. Yangi kutarilish davri buldi. Kupgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar etishib chikdi.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib, G'ijduvon, Panjikent, Samarkand,

¹Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.123

Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Ular sopol idishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. 1930 yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarkandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o'quv ishlab-chikarish ustaxonasi tashkil etilib, u mahalliy xalq amaliy san'at ustalari, shu katori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. 1943 yili Shahrisabzda o'quv ishlab-chikarish badiiy korxonasi ishga tushirildi¹.

Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sidqidildan o'rgatdilar. Hozirgi kunda kulolchilik faniga yanada e'tibor kuchaymokda. O'zbekiston badiiy akademiyasiga karashli Respublika kolledjida, K.Behzod nomli rassomchilik va dizayn institutida, Nizomiy nomli TDPU BGFning amaliy san'at kafedrasida bu fan yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hademay bu ustalar yaratgan kulolchilik san'at asarlari xam muzeylardan joy olishiga ishonchimiz komildir.

Rishton O'zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va kadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida axolisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Fargona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta'siri ostida bo'lgan. Ushbu tumanda har kanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo'lgan, aloxida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo'la oladi.

Qizgish-sargish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun xududida 1–1,5 m chukurlikda katlam bulib joylashgan. Gilning yaxshi sifatligi maxalliy ustalarning uni O'zbekistonning boshka tumanlaridagi kulollardan farkli ravishda oldindan tozalab boshka turdagi tuproklarga aralashmagan xolda ishlab chikarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yakindagi toglardan har xil

¹Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиқов ва бошқ.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарқ, 2000.- Б.148

buyoklar, kvartslı kum va olovbardosh gillarnı kazib olishgan. 1960 yillarda yukorida eslatib utilgan moviy sopol buyumlari ishlab chıkarıladigan an'anaviy markazlar barxam topa boshladı. Ana shunday sharoitda San'atshunoslarning Butunittifok konferentsiyasi (Fargona 1974 yil) kabul kilingan moviy ishkorli sopol idishlari ishlab chıkarish an'analarini saklab kolish xakidagi karori amaliy axamiyat kasb etdi. Ushbu karor ustalarga ma'kul tushdi. Ular oldingi ishlab chıkarishga kaytib buyumlarnı bezashning an'anaviy shakllari va usullarini kayta tiklay boshladilar. Keyingi 20 yil ichida Rishton sopoli an'anaviy badiiy va texnologik usullar asosida yana kayta tiklandi. Ishkorli sir tayyorlash ham yo'lga qo'yildi. Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko'p jihatdan buyumlarga naqsh berilishida ko'zga tashlanadi¹.

1970-90 yillardagi girix bezaklar orasida tursimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakllarning bir maromda joylashtirilishi doirasimon shakllarning zanjir shaklida bir tekis berilishi nuktali naqsh qora va ok kvadratchalarning navbat bilan o'rin almashishi shaklidagi naqsh egri va to'g'ri chiziklar shaklidagi doiracha va to'pbarggul shaklidagi mavhumiy geometrik bezaklar ko'p tarqaldi. O'simliksimon naqshlar ayniksa turli-tuman va sermazmundir. O'simlik dunyosiga oid mavzularnı talqin kilishda ayniksa an'anaviy belgilar bilan bu mavzularning yangicha talkinlari nisbatan yakkol kuzga tashlanadi.

Hayvonlarga oid va antropomorfik mavzular Rishton kulolchiligida «parchasi yaxliti uchun» tamoyiliga ko'ra takdim etilgan. Unda inson, hayvonlar va parrandalarning gavdasini ayrim unsurlari yordamida yaxlitlik goyasi aks ettiriladi. 1970–1990 yillar

¹Темирходжаев Дж., Пулатов Б. Ўзбекистоннинг машхур кулолчилик мактаблари/ Тарих тафаккури. Тарихчи олимларнинг илмий-амалий мақолалар тўплами. VIII жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.159

Rishton kulolchiligining rivojiga kuyidagi tamoyilni kayd qilish mumkin. Rishtonlik ustalar an'anaviy merosni astoydil e'zozlash bilan birga ancha dadillik va keskinlik bilan buyumlar shakllari talkini xamda naqshli bezaklar harakteriga uzgarishlar kiritishyapti. An'anaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan tulakonli kilib kayta tiklash an'analarga so'siz rioya qilish urnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormokda.

Har bir ijodkorning ruhiy holatii, o'zi bajarayotgan buyumida uz aksini topmasdan kolmaydi. Kishi ruhiyatini ko'tarishda esa xonaning ozodaligi, jihozlarning kulayligi muxim rol uynaydi. Kulolchilik xonasini jihozlashda haykaltaroshlik xonalarini jihozlashning umumiy koidalaridan kelib chikkan xolda jihozlash kisman bulsada foydalanish maksadga muvofikdir. Har bir asbob-uskunalar, xom-ashyolar, ko'rgazmali kurollar, talabalarining tayyor ishlari, dastgohlar, elektropechlar tartibi bilan uz joyiga kuyilmogi lozim.

Kulolchilik ustaxonasida bevosita talabaning foydalanadigan maydoni 50-55 m² bulsa, har bir talabaning ish o'rni bir-biridan 60 sm, katorlar orasida 1 m dan uzoklikda bo'lsa, harakatlanish qulay bo'ladi. Ustaxonaga tabiiy yoro'g'lik tushishini ta'minlash, buning iloji bo'lmasa, kunduzgi yorug'lik lampalari bilan ta'minlash kerak.

Kulolchilik asarini yasash uchun talabadan mohir musavvirlikni, naqqoshlikni, haykaltaroshlikni talab etadi.

Har bir asbob-uskunani yoki dastgohni, elektropechni, xumdonlarni ishlatishning konun-koidalari mavjud. Talabaning bu texnologiya bilan tanishmagani turli baxtsiz hodisalarni kelib chikishiga sabab bo'ladi. Ishlashdan oldin albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Xumdonda sopol buyumlar pishirishdan oldin xumdon atrofidagi buyumlar ko'zdan kechiriladi. Yong'indan saqlash

choralari ko'rib chiqiladi. Elektroisitgichlarda ishlaganda uni isitishdan oldin barcha simlar, uzellarning butunligi ko'zdan kechiriladi. Agar ba'zi simlar izolyatsiyasi ochilib qolgan bo'lsa, elektropechlarni ishlatishga ruxsat etilmaydi. Topilgan kamchiliklar tuzatilgandan so'ng ishlashga ruxsat beriladi. Elektropech ishlatilib, unga buyumlar kuyilib, eshiklari yopilgach uning issikligi asta-sekinlik bilan ko'tarilib boradi¹. Bu vaktida pechning eshigini hohlagan vaktida kayta-kayta ochish ta'kiklanadi. Pech va buyumlar ma'lum muddatda sovigandan keyin olinishi mumkin. Agar sopol buyum to'g'ri texnologiya asosida yasalgan bulsa, u xech kachon yorilmay chikadi. Dastgohda va xumdonda ishlash uchun mavjud qoidalarni o'zlashtirgan va ularga to'liq rioya kiladigan talabalarnigina maxsus daftarga imzo chekkandan keyin ruxsat etiladi.

1970-1990 yillar Rishton kulolchiligining rivojiga quyidagi tamoyilni qayd qilish mumqin. Rishtonlik ustalar ananaviy merosni astoydil ezozlash bilan birga ancha dadillik va kesqinlik bilan buyumlar shakllari talqini hamda naqshli bezaklar harakteriga o'zgarishlar kiritishgan¹. Ananaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan to'laqonli qilib qayta tiklash ananalarga so'zsiz rioya qilish urnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda.

¹Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўқитувчи, 1986.- Б.143

¹Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре. - Ташкент: Фан, 1976. – С.148

2.3. G'ijduvon kulolchilik maktabi

XVIII asrni boshlarida hunarmandchilik Buxoroda, G'ijduvonda kuchli rivojlangan. Shulardan kulolchilik, temirchilik, yog'och o'ymakorligi, matoga gul bosish, kashtachilik hozirgi kunga kadar davom etib kelmokda.

G'ijduvon shaxrida o'nlab kulollar yashab ijod qilgan. G'ijduvon shahrida boshka Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, Xiva, Urganch shaharlardan kelib ishlaganlar. Hunar o'rganganlar va malaka oshirganlar. Bu erdan kupgina kulolchilik ishlarini Buxoro, Vobkent, Kattaqo'rg'on, Nurota, Qarshi shaharlariga olib borib sotgan.

G'ijduvon milliy kulolchilik ishlarini xalq ustalari davom ettirib kelmoqdalar. Shulardan Usta Usmon Umarov katta avlod vakillaridan (1891 yilada tugilgan). Usta Ibodullo Narzullaev (1927 yilda tugilgan). Sopol qanddon, lagan, kosa, shokosa kabi buyumlar yasaganlar. Ular buyumlarning ranglar uyg'unligiga, sirli koshinkor gullar ko'rkamligiga buysundirilgan xolda bezaganlar. Bu ustalarning ishlari nafaqat O'zbekistonda balki boshka chet ellarda xam mashhurdir. Ular respublikamiz va boshka chet el ko'rgazmalarining domiy qatnashchisi bo'lganlar¹.

Hozirgi kunda ustalarning ishlarini ularning farzandlari davom ettirib kelmokda va shulardan biri O'zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O'zbekiston xalq ustasi Alisher Narzullaev shu maktab davomchisidir.

“Tashabbus” ko'rik-tanlovlarida O'zbekiston Prezidenti sovrini g'olibi bo'ldilar va tajriba almashib ishlash uchun AQSh, Yaponiya, Frantsiya, Afg'oniston kabi kupgina mamlakatlarda bo'lib keldilar.

¹Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти / Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. – Тошкент: Академия, 2000.–Б.132

Alisher Narzullaev hozirgi kunda ham hunarlarini yoshlarga o'rgatib kelmoqdalar. U kishi G'ijduvon milliy kulolchilik uslubida sopol lagan, shokosa, piyola, lali va xokazo ijodiy ishlari bilan O'zbekistonning mizey va mehmonxonalari bezitib kelmokdalar.

Betakror san'atkor, xalq amaliy xunarmandchilikning mohir ustasi, sobiy ittifoq rassomlar uyushmasining a'zosi Hamro bibi Rahimova qo'lida sayqal topgan turli-tuman o'yinchoqlar dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida namoyish qilingan. Ayniqsa, Frantsiyaning Luvr, Sankt-Peterburgdagi Davlat ermitaji, Rossiya xalqlari etnografiyasi muzeylari ko'rgazmalarida qo'yilgan eksponatlar o'zining betakrorligi va mo''jizakorligi, fantastik olami bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan.

Hamro bibi Rahimova faoliyati davomida o'nlab etuk shogirdlar etishtirdiki, ular bugungi kunda ham mashhur kulolsoz ishlarini davom ettirib, o'zbek kulolchilik maktabini ajoyib san'at asarlari bilan boyitmoqdalar.

Ana shulardan Jabbor Raximov, Kubaro opa Boboevalar ijodiy izlanishlari, tinimsiz mehnatlari o'yinchoqsozlarning kundalik yumushiga aylangan. Ustalar yaratayotgan o'yinchoqlar har bir tomoshabinni ertaklar va ajoyibotlar olamiga olib kirishi tabiiy. Xalq og'zaki ijodida ta'kidlangan qirq boshli ajdarholar, afsonaviy semurg' qushlari, ikki boshli qo'chqorlar, Nasriddin Afandi hayotidan hikoya qiluvchi qiziqarli shakllar o'zbek xalqi ertagi asosida yaratilgan kompozitsiyalar kishini beixtiyor o'ziga tortadi. Ular bevosita kichkintoylar ruhi olamini boyitishga, ongini o'stirishga, go'zallikni his etishga o'rgatadi.

Shunisi quvonchliki viloyat markazi bo'lgan Buxoro shaxrida kulolchilikning yangi sohasi paydo bo'ldi. Bu dekorativ monumental san'at bo'lib, uni manzaraviy kulolchilik deb ham aytish mumkin.

Ma'lumki sopolning bu turi O'zbekistonda 70-80 yillarda kirib keldi. Uning eng go'zal namunalari Toshkent shaxrining chiroyiga chiroy qo'shdi. Ayniqsa Toshkentlik ustalar Kedrin, A.Raximov, E.Abramov, Yu.Kim, S.Sultonmurodov, S.Qarlixanova, F.Toshmuhammadov bu san'atning mumtoz namunalarini yaratib ko'p sonli san'at muxlislarining olqishiga sazovor bo'lishdi. Keyingi vaqtlarda Buxoroning ma'muriy-madaniy binolarida, Buxorolik rassom va ustalarning ko'rgazmalarida san'atning mazkur turiga oid ishlar ko'zga tashlanmoqda. Shuni alohida qayd qilish lozimki, bu ishlar kulollar B.Gulov, N.Saidov, haykaltarosh X.Zoyirov, Q.Norxo'rozov hamda me'morlar T.Karimov, Z.Qilichev, R.Mavlonberdievlarning hamkorlikda olib borgan ijodiy faoliyatining samarasi sifatida maydonga keldi¹. San'atshunos A.Xakimov ta'kidlaganidek, - "O'zbekiston zamonaviy dastgohli kulolchilik rivojlanishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki u haykaltaroshlik hamda rang tasvirning shakllanishida ijobiy rol o'ynamoqda". Buxoro kulolchiligi ham bu fikrni tasdiqlaydi.

G'ijduvon, Shaxrisabz ustalari mo'yqalamda ishlasalar, Urgut, Denov ustalari chizma naqshlarni ko'p qo'llaydilar. G'ijduvonlik aka-uka Alisher va Abdulla Narzullayevlar an'analarni saqlash, rivojlantirish va vorislarga yetkazishda samarali mehnat qilmoqda. Ustalar idishlar tubiga hayvonlarning soddalashtirilgan shakli yoki ayrim qismlarini joylashtiradilar ("dumi burgut", "murg'i safid", "boyqush", "guli tovus" va boshqalar), bu shakllar gulsimon naqshga o'xshab ketishi bilan diqqatga sazovor. Narzullayevlar yaratgan buyumlarda yangilikni his qilish, an'anaviy shakllarga erkin munosabatda bo'lish kabi xususiyatlar aniq ko'zga tashlanadi.

¹Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиқов ва бошқ.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарқ, 2000.- Б.189

Kulol, haykaltarosh va me'morlarning ijodiy hamkorligi yaxshi samara bermoqda. Ular keyingi yillarda bir qancha monumental asar yaratdi.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

Hunarmandchilikning bir bo'lagi bo'lgan kulolchilik tarixi ana shu hunarmandchilikning paydo bo'lishidan to hozirgi zamon bosqichigacha bo'lgan davr kulochilik taraqqiyotini o'rganadi, shu davr mobaynida yashab ijod etgan va ijod qilayotgan kulollar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishadi, ularning asarlarini tahlil etadi, taqqoslaydi.

Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsada, uning ko'rinishi qismlarning aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmuninig birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarining jahonga tanitib kelmokda.

Kasbida kulolchilik rivoj topgan bo'lib, kulol bu erning dastlabki hunarmandi, asosiy kishisi sanalgan, uning dastgohida sayqal topgan idishlar bu erdan o'tgan karvonning nazariga tushgan va unga yo'lda asqotgan Kasbi kulollari yasagan xumlarning har biriga 50-100 litrdan suv ketadi.

Farg'ona vodiysi xalq hunarmandlarining kulolchilik buyumlari yuz yillar davomida mashhur bo'lib kelgan. Rishton va Quva kulolchilik sanati maktabi qatorida G'urumsaroy kosiblarining ishlari ham shuhrat qozongan. Hozirgi paytda bu qishloq Namangan viloyati Pop tumanidagi kulolchilik ishi markazlaridan biri hisoblanadi.

Rishtonlik ustalar ananaviy merosni astoydil ezozlash bilan birga ancha dadillik va kesqinlik bilan buyumlar shakllari talqini hamda naqshli bezaklar harakteriga o'zgarishlar kiritishyapti. Ananaviy

shakllarni va naqshlarni izchillik bilan to'laqonli qilib qayta tiklash ananalarga so'zsiz rioya qilish o'rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda.

G'ijduvon shahrida o'nlab kulollar yashab ijod qilgan. G'ijduvon shahriga boshka Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, Xiva, Urganch shaharlardan kelib ishlab, hunar o'rganganlar va malaka oshirganlar. Bu erdan ko'pgina kulolchilik ishlarini Buxoro, Vobkent, Kattaqo'rg'on, Nurota, Qarshi shaharlariga olib borib sotganlar.

G'ijduvon milliy kulolchilik ishlarini xalq ustalari davom ettirib kelmoqdalar. Ular buyumlarni ranglar uyg'unligiga, sirli koshinkor gullar ko'rkamligiga buysundirilgan holda bezaganlar. Bu ustalarning ishlari nafaqat O'zbekistonda balki boshqa chet ellarda xam mashhurdir, ular mamlakatimiz va boshka chet el ko'rgazmalarining domiy qatnashchisi bo'lganlar.

Kulol, haykaltarosh va me'morlarning ijodiy hamkorligi yaxshi samara bermoqda, ular keyingi yillarda bir qancha ajoyib san'at asarlarni yaratdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодиётининг устивор йўналишлари. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 240 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Тошкент: Ўзбекистон, 1993.- 320 б.
3. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 525 б.
4. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 368 б.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. – 168 б.

6. Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўқитувчи, 1986.- 208 б.
7. Абулғозий. Шажараи турк /Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Маҳмудов. - Тошкент: Чўлпон, 1992. –167 б.
8. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 240 б.
9. Агзамова Г. Ўрта Осиё хонликлари тарихи: манбаларга оид чизгилар// Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008. – Б.118-123.
10. Агзамова Г.А. XVIII асрнинг биринчи чорагида Бухоро хонлиги: элчи Флорио Беневени талқинида // Ўрта Осиёнинг қадимги ва ўрта аср шаҳар маданияти анъаналари. Ўзбекистон Миллий университети археология кафедрасининг 70 йиллигига бағишланган илмий анжуманга йўлланган маърузалар тўплами. “Yangi nashr”, 2010.
11. Агзамова Г.А. Бухара – Амударё - Ургенч: к истории караванной дороги // Туркменская земля – колыбель древних культур и цивилизаций. Материалы международной научной конференции. Ашхабад, 1-3 октября 2008 г.
12. Алимова Д., Филанович М. Тошкент тарихи. Қадимги даврдан бугунгача. – Тошкент, 2009. – 245 б.
13. Аҳмаджонов Ғ.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Тошкент, 2003. – 270 б.
14. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии (Из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд. - Москва: 1987.(эл.вар.)

15. Джекинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. - М.: ОГИЗ, 1998. –182 с.
16. Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.: Детская литература, 1988. – 256 с.
17. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милоддан аввалги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001. – 236 б.
18. Исабоева Г. XIX асрда Қўқон хонлигида маданий ҳаёт. Тарих фан. ном. дисс.. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – Б.142.
19. Мирзахмедов Д.К. Глазурированная керамика Бухары XIX вв. / Из истории культурного наследия Бухары. - Ташкент, 1990. – 240 с.
20. Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов Ўзбекистана в XV-XVI в. - Тошкент: Фан, 1985.- 130 с.
21. Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре. - Ташкент: Фан, 1976. – 248с.
22. Муқимов З. Амир Шоҳмурод ислохотлари // Ҳаёт ва қонун. – Тошкент, 1995. - №2-3
23. Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989. – 240 с.
24. Темирходжаев Дж., Пўлатов Б. Ўзбекистоннинг машҳур кулолчилик мактаблари/ Тарих тафаккури. Тарихчи олимларнинг илмий-амалий мақолалар тўплами. VIII жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.155-158
25. Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 395 б.

26. Шамсиддинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. Иккинчи китоб.Тўлдирилган, қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 488 б.
27. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – 324 б.
28. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти / Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. – Тошкент: Академия, 2000.
- 29.Ўзбекистонинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ,2000. – 424 б.
30. Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ.Бобобеков, Ш.Каримов, М.Содиқов ва бошқ.: Масъул муҳаррир Ш.Каримов. – Тошкент: Шарқ, 2000.- 248 б.
31. Ҳамидова М.С. XVIII-XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси хунарамандчилиги тарихшунослигига доир//Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент,2008. – Б.132-134.
- 3.37. Internet saytlari ma'lumotlari
1. www.e-tarix.uzG'vatan-tarixiG'475-vatan-tarixi.html
 2. http://G'G'hunar.uzG'index.php?option=com_k2&view=item&id=34:urta-osio-naqqoshlik
 3. <http://G'G'images.rambler.ru>
 4. <http://G'G'cookingknife.ruG'aShow.aspx?id=61>
 5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kulolchilik>

I L O V A L A R

1-ilova

I. Kulolchilik san'ati markazlari¹

1. Xorazm guruhi

¹Bukulolchilik maktablarining birdan-bir farqishundaki, ular ishlatadigan tuproq, ular yasagan buyumlarning shakli, buyumlarga tushirilgan naqshlarning turli xildabo'ladi.



2. Buxoro – Samarqand guruhi

G'ijduvon kulolchilik maktabi
O'ba kulolchilik maktabi
Samarqand kulolchilik maktabi
Urgut kulolchilik maktabi
Urmetan kulolchilik maktabi
Jizzax kulolchilik maktabi

Kitob kulolchilik maktabi
Shahrisabz kulolchilik maktabi
Kasbi kulolchilik maktabi
Denov kulolchilik maktabi
Qora tog' kulolchilik maktabi

3. Farg'ona guruhi

Rishton kulolchilik maktabi
Isfara kulolchilik maktabi
O'ratepa kulolchilik maktabi
Koni bodom kulolchilik maktabi
Namangan kulolchilik maktabi
Shexon kulolchilik maktabi
Andijon kulolchilik maktabi

2-ilova

Xorazm kulolchilik maktabi namunalari





Naqshli oq ko'za. Er. av. 2000 yil. Vashington.
Sher-odamhaykali.

Er.av. 2000 yillar. Pekin. Gugun muzeyi

